



## O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI İQTİSODİYOT VA MOLİYA VAZİRLİĞİNİNG BUYRUG'I

3 iyul 2024 yil.

**23-118-son**

### **O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi faoliyatini tartibga solish haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagি “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-141-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**,

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” va “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi tarkibida **“Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasi hamda Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish bo'yicha hududiy guruhlar tashkil etilsin.**

2. Quyidagilar:

**“Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhining nizomi 1-ilovaga muvofiq;**

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish”, “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” va “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhining (keyingi o'rnlarda – BLAOG) tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. BLAOG direktori v.v.b. B. Turayev:

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan BLAOG nizomini 3 kun muddatda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni ta’minlasin;

BLAOGni tajribali va yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish choralarini ko‘rsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” va “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhining Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 177сон buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S. Sadullayev zimmasiga yuklansin.

Vazir



D. Kuchkarov